

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**“TARBIYAVIY ISHLARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH”
MODULINING**

ISHCHI O‘QUV DASTURI

Malaka oshirish kursi yo‘nalishi:
Tarbiya

Tinglovchilar kontingenti:
Akademik litseylar pedagog xodimlari

Buxoro – 2024

Modulning ishchi dasturi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil “25” avgustdagi 391-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan “Tarbiya” malaka oshirish yo'nalishi o'quv reja va dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: **Olimov Sh.Sh.** - Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrası mudiri p.f.d., professor,
 Samiyeva Sh.X. - Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrası dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

Taqrizchi: **Adizov B.R.** – Buxoro davlat universiteti professori, p.f.d.

KIRISH

Ishchi dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23-sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3-dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6-iyundagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1-iyundagi "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo'nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Ishchi dasturda "Tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va boshqarish" moduli mavzulari orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar tarbiya fanini zamonaviy talablar asosida o'qitishning ilmiy, metodologik asoslari va ularning mazmun-mohiyati, o'qituvchilar tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va boshqarishga tayyorlash mexanizmlari, fanni o'qitishda xalqaro va milliy pedagogikaning tajribalariga tayanish orqali ularning pedagogik mahorati va kasbiy kompetentligini takomillashtirish hamda pedagog xodimlarning modul bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

Modulning maqsadi va vazifalari

"Tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va boshqarish" modulining **maqsadi** o'qituvchilarning modul bo'yicha zarur kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini yangilash, kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratining rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Modulning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- o'qituvchilarning **"Tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va boshqarish"** moduli bo'yicha kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini yangilab borish;

- o'qituvchilarning **"Tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va boshqarish"** modulini o'qitish sifati va samaradorligini ta'minlashga qaratilgan kasbiy mahorat darajasini oshirish;

- **"Tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va boshqarish"** moduli bo'yicha o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish hamda ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;

- o‘quv-tarbiya jarayonini fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo‘yiladigan talablar:

Kurs yakunida tinglovchilar quyidagi yo‘nalishlarda bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- tarbiya fanini zamonaviy talablar asosida o‘qitishning ilmiy, metodologik asoslari va ularning mazmun-mohiyatini:

- uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasida dunyo pedagogik tajribasi va yutuqlarini;

- yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish tamoyillarini;

- milliy tarbiya texnologiyalarning mazmunini ***bilishi*** lozim.

Tinglovchi:

- tarbiya fanini o‘qitishda milliy pedagogikaning tajribalaridan foydalana olish;

- klaster usulida tarbiya fanini o‘qitish usul, shakl va vositalarini amalda qo‘llay olish;

- tarbiya fanini o‘qitishda ilg‘or mahalliy va xorijiy pedagogik tajribalaridan foydalangan holda tashkil etish ***ko‘nikma va malakalariga*** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va boshqarishga tayyorlash mexanizmlaridan foydalana olish;

- tarbiya fanini o‘qitishda ilg‘or pedagogik tajribalarni amalda qo‘llay olish;

- tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishda bevosita muammolarni aniqlash va ularning yechimiga doir ilmiy yondashuvlarga asoslanish;

- tarbiyada oilaning ta’lim muassasasi bilan o‘zaro samarali hamkorligini rivojlantirish tajribalarini amalda qo‘llash ***kompetensiyalariga*** ega bo‘lishi lozim.

O'QUV MODULI BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Jami	Umumiy auditoriya soati	Jumladan	
				Nazariy	Amaliy
1.	“Tarbiya” fanini zamonaviy talablar asosida o‘qitishning ilmiy, metodologik asoslari	2	2	2	
2.	“Tarbiya” fanining mazmuni va uni klaster usulida o‘qitish	2	2		2
3.	O‘qituvchilar tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va boshqarishga tayyorlash mexanizmlari	2	2		2
Jami		6	6	2	4

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: “Tarbiya” fanini zamonaviy talablar asosida o‘qitishning ilmiy, metodologik asoslari (2 soat nazariy).

REJA:

1. “Tarbiya” fanini o‘qitishga qo‘yiladigan talablar va o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Uzlaksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasida dunyo pedagogik tajribasi va yutuqlari.
3. O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish tamoyillari.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: “Tarbiya” fanining mazmuni va uni klaster usulida o‘qitish (2 soat amaliy).

REJA:

1. “Tarbiya” fanini o‘qitishda milliy pedagogikaning tajribalariga tayanish.
2. Klaster usulida “Tarbiya” fanini o‘qitish usul, shakl va vositalari.
3. Tarbiya jarayonida o‘qituvchi va murabbiylarning maqomi.

2-Mavzu: O‘qituvchilar tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va boshqarishga tayyorlash mexanizmlari. (2 soat amaliy)

REJA:

1. Tarbiyaviy ishlar jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmatni shakllantirish.
2. O‘qituvchilar tarbiya ishlarini tashkil etish va boshqarishda ilg‘or pedagogik tajribalarni aniqlash.
3. Tarbiyada oilaning ta‘lim muassasasi bilan o‘zaro samarali hamkorligini mustahkamlash mexanizmlari

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. Т.: “Ўзбекистон”, 2018. – 507 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд.– Т.: “Ўзбекистон”, 2019. – 400 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд.– Т.: “Ўзбекистон”, 2020. – 400 б.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2018.
7. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрда қабул қилинган “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-637-сонли Қонуни.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 26 сентябрь “Олий таълим муассасаларига кириш учун номзодларни мақсадли тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги ПҚ-3290-сонли Қарори.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрь “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача

ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони.

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрь “Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-6097-сонли Фармони.

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 3 декабрдаги “Иқтидорли ёшларни саралаб олиш тизими ва академик лицейлар фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-4910-сон Қарори.

13. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 1 июндаги “Академик лицейлар раҳбар ва педагог ходимларининг уздуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида” 296-сон Қарори.

14. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 6 июлдаги “Умумий ўрта таълим муассасаларида “Тарбия” фанини босқичма-босқич амалиётга жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 422-сон Қарори.

15. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги “Уздуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 1059-сон Қарори

III. Maxsus adabiyotlar

16. Асекретов О.К., Борисов Б.А., Бугакова Н.Ю. и др. Современные образовательные технологии: педагогика и психология: монография. – Новосибирск: Издательство ЦРНС, 2015. – 318 с. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>

17. Белогуров А.Ю. Модернизация процесса подготовки педагога в контексте инновационного развития общества: Монография. – М.: МАКС Пресс, 2016. – 116 с. ISBN 978-5-317-05412-0.

18. Гулобод Қудратуллоҳ кизи, Р.Ишмуҳамедов, М.Нормуҳаммедова. Анъанавий ва ноанъанавий таълим. – Самарқанд: “Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази” нашриёти, 2019. 312 б.

19. Муслимов Н.Ава бошқалар. Инновацион таълим технологиялари. Ўқув-методик қўлланма. – Т.: “Sano-standart”, 2015. – 208 б.

20. Ишмуҳамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар). – Т.: “Истеъдод” жамғармаси, 2008. – 180 б.

21. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Тарбияда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар). – Т.: “Истеъдод” жамғармаси, 2009. – 160 б.

22. Топилдиев В. Таълим ва тарбия жараёнларини ташкил этишнинг меъёрий-ҳуқуқий асослари. - Тошкент: “Университет”. 2015. – 245б.

23. Қуронов М., Тураев Ш. ва бошқ. Миллий тарбия ва ёшлар дунёқарашини шакллантириш. ўқув қўлланма, "Мухаррир" нашриёти 2017й. 186.т

24. Кодиров А., Қуронов М.ва бошқ.Фазилатли авлод: 7-18ёш гача бўлган болаларни тарбиялаш бўйича қўл анма. "Мухаррир" нашриёти 2019 й.

25. Олимов Ш.Ш.. Маънавий-ахлоқий тарбия асослари. (Монография). – Т.: «Fan va texnologiya», 2015, 228 бет.

IV. Internet saytlar

26. <http://edu.uz> – Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги.

27. <http://lex.uz> – Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси

28. <http://lib.bimm.uz> –Бош илмий-методик маркази

29. <http://ziyonet.uz> – Таълим портали Ziyonet

30. <http://natlib.uz>–Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси.